

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.K.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JO‘RAYEVA GULNOZA ABDURASHIT QIZI

**TABIY POLIMERLARNING IKKILAMCHI TOLASIMON
XOMASHYOSINI BOKIMYOVIY MODIFIKATSIYALASH**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

Contents of dissertation for doctor of philosophy (PhD) on chemical science

Jo‘rayeva Gulnoza Abdurashit qizi

Tabiiy polimerlarning ikkilamchi tolasimon xomashyosini
biokimyoviy modifikatsiyalash.....3

Жураева Гулноза Абдурашит кизи

Биохимическая модификация вторичного волокнистого сырья
природных полимеров.....21

Jurayeva Gulnoza Abdurashit kizi

Biochemical modification of secondary fibrous raw materials of
natural polymers.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.01/2025.27.12.K.04.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

JO‘RAYEVA GULNOZA ABDURASHIT QIZI

**TABIY POLIMERLARNING IKKILAMCHI TOLASIMON
XOMASHYOSINI BOKIMYOVIY MODIFIKATSIYALASH**

02.00.06 – Yuqori molekulyar birikmalar

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.1.PhD/K929 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (resume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.cspi.uz.ilmiy-kengash) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Rafikov Adxam Salimovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Karimov Mahmud Muratovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yuldashev Sherzod Abdullayevich
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Toshkent kimyo-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi DSc.01/2025.27.12.K.04.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "5" 11 soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (0371) 716-68-05 faks (0371) 716-68-11; e-mail: (www.cspi.uz.ilmiy-kengash)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (441-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy Tel.: (0371) 716-68-05, faks (0371) 716-68-11; e-mail: tvchdpi_k.kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "19" 11 kuni tarqatildi.
(2026-yil "19" 11 dagi 30-raqamli reestr bayonnomasi)



O.E. Ziyadullayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

G.Q. Otamuxamedova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, k.f.d.

D.J. Bekchanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda to‘qimachilik va yengil sanoat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun istiqbolli bozorga aylanmoqda, chunki iste‘molchilarning nafaqat kundalik, balki innovatsion mahsulotlarga bo‘lgan talabi ham ortib bormoqda. Afsuski, ayni paytda ko‘plab iqtisodiy tarmoqlarda, jumladan, to‘qimachilik sanoatida ham xomashyo taqchilligi kuchayib bormoqda, tabiiy va energetik resurslar narxi esa tobora oshmoqda. Shu bilan birga, texnologik va maishiy tolali chiqindilar miqdori sezilarli darajada ko‘paygan. Ushbu chiqindilarni qayta tiklash va qayta ishlatish esa ekologik hamda iqtisodiy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda tolali chiqindilarni maqsadli qayta ishlashga oid fundamental va amaliy masalalar bo‘yicha keng tadqiqotlar olib borilmoqda va loyihalar amalga oshirilmoqda, ularni ikkinchi xomashyo sifatida tiklash jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan. Ikkilamchi xomashyodan yuqori sifatli materiallar va mahsulotlar olish uchun ularni oldindan tayyorlash, ya‘ni to‘qimalarning yuzasini modifikatsiya qilish, asosiy strukturasi va funksional xususiyatlarini tiklash zarurligi ma‘lum. So‘nggi davrda biologik modifikatsiya usullari fizik va kimyoviy usullarga nisbatan afzal ko‘rilmoqda, chunki ular past toksikligi, iqtisodiy samaradorligi, ekologik xavfsizligi va yuqori selektivligi bilan ajralib turadi. Fermentativ modifikatsiya tabiiy tolalar asosida biosayqallash jarayonlarida muvaffaqiyatli qo‘llanilmoqda. Ammo ikkilamchi tolalarning biokimyoviy modifikatsiyasi bo‘yicha ilmiy-texnik imkoniyatdan to‘liq foydalanish masalasi hali ham o‘z yechimini kutmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining to‘qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotining asosiy drayveri hisoblanadi, bunda ishlab chiqarish tarmoqlarining tuzilishi, tabiiy iqlim sharoitlari hamda tabiiy tolali xomashyoni yetishtirish an‘analari sohaning o‘ziga xosligini ta‘minlaydi va uni boshqa tarmoqlardan ajratib turadi. Ushbu tarmoq istiqbolli va innovatsion loyihalar hamda texnologiyalarni joriy etish uchun zamin yaratadi, shuningdek, maishiy hamda texnologik tolali chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha muhim natijalarga erishilgan. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlanish strategiyasida «2026 yilgacha maishiy chiqindilarni to‘liq yig‘ishni 100% ga va qayta ishlash darajasini 21 foizdan 50 foizga yetkazish» vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalarni hal qilishda ekologik tamoyillarga asoslangan tolali chiqindilarni kompleks qayta ishlash bo‘yicha ilmiy va amaliy yechimlarni yaratish, tabiiy polimerlardan olingan ikkilamchi tolali xomashyoni biokimyoviy modifikatsiya qilishning ilmiy-amaliy ro‘yobga chiqarilishi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”, 2024-yil 4-yanvardagi PF-5 “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 16-sentabrdagi PQ-4453 “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishi strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni.

chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilish darajasi. Birlamchi sellyulozaning fermentativ gidroliziga oid masalalar xorijda R.L. Gautam, A.K. Bharadwaj, Y. Yu, Q. Wang, E. Repetto, C.R. Ramirez va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Respublikamizda esa paxta sellyulozasining fermentativ ishlov berilishi sohasida M.Z. Abdukarimova, I.A. Nabiyeva, D.B. Xudoyberdiyeva va boshqalar tadqiqot olib borishgan. Tadqiqotchilar asosan birlamchi tolalar va ulardan tayyorlangan mahsulotlarga fermentativ ishlov berishga katta e'tibor qaratishgan, ammo ikkilamchi sellyulozaning to'qimachilik mahsulotlari uchun xomashyo sifatida mavjud kamchiliklarini bartaraf etish va mahsulotlarning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash masalalariga yetarli e'tibor qaratilmagan.

Teri chiqindilarini qayta ishlash va atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar Velusamy M., Bhavya B., Jiri P., Marina V., Silvia P., Murali S., Simeonova L., Dalev P. va boshqa xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Respublikamizda teri sanoatining chiqindilarini qayta ishlash masalalari N.B. Mirzayev, S.Sh. Tashpulatov, N.R. Qodirova va boshqalar tomonidan o'rganilgan. Yirik qoramol teri chiqindilaridan olingan oqsil gidrolizati va uning payvandlangan sopolimerlari paxta iplarini ohorlashda hamda charm chiqindilarini ishqoriy gidroliz qilish jarayonida ijobiy natijalar bergan. Shunga qaramay, charm chiqindilarining biokimyoviy modifikatsiyasi, sellyuloza va oqsil chiqindilarini birgalikda o'z ichiga olgan biomodifikatsiyalangan tolali massani yaratish, ularni chuqur o'rganish va amaliy qo'llash masalalarini yechish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Sellyulozali to'qimachilik materiallarining biokimyoviy modifikatsiyasi" (IL-4821091581, 2022-2024 yillar) hamda "Ekologik tamoyillarga asoslanib polimer chiqindilarini kompleks qayta ishlashning ilmiy va amaliy asoslari" (FL-9024093557, 2025-2029 yillar) mavzularidagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi tabiiy polimerlarning ikkilamchi tolasimon xomashyosini biokimyoviy modifikatsiyalash asosiy bog'liqliklarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: ikkilamchi sellyulozani sellulaza fermenti bilan va charm chiqindilarini proteaza fermenti bilan biokimyoviy modifikatsiya qilishning sharoitlarini aniqlash;

ikkilamchi sellyulozani sellulaza bilan, oshlangan charm chiqindilarining xromli chiqindisini proteaza bilan ta'sirlashuv reaksiyalarini aniqlash;

ikkilamchi selluloza va charm chiqindilari xromli qirindilarini modifikatsiyalangan namunalarning mikrostrukturasi, tuzilishi, morfologiyasini aniqlash;

ikkilamchi tolalardan olingan materiallarning fizik-mexanik va rang xususiyatlarini modifikatsiya usuli va sharoitlariga bog'liqligini aniqlash;

oshlangan charmning modifikatsiyalangan chiqindilari asosida poyabzal asosiy patagini ishlab chiqarish va uning xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning obykti sifatida to'qimachilik chiqindilaridan qayta tiklangan ikkilamchi selluloza, oshlangan charm chiqindilari – charm qirindisi (ChQ), sellulaza va proteaza fermentlari, aktiv bo'yovchi modda, tayyorlash jarayonlari uchun reagentlar (NaOH, H₂O₂, Na₂SiO₃, Na₂CO₃, SAM), kollagen saqlovchi eritma (KE), akril emulsiya (AE), MS-6 sinfiga mansub makulatura olingan.

Tadqiqotning predmetini tolali chiqindilarga biokimyoviy ishlov berish jarayonlari, modifikatsiya parametrlari, modifikatsiyalangan ikkilamchi selluloza va charm qirindilari kollageni hamda ular asosidagi funksional materiallarni morfologiyasi, element tarkibi, strukturasi, fizik-mexanik, termik va amaliy xossalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada IQ-Furye spektroskopiyasi, differensial-termik tahlil (DTA), skanerlovchi elektron mikroskopiya mikroanaliz tizimi bilan (SEM-EDX), rentgenfazaviy tahlil, kolorimetriya, tolali materiallarning mexanik va gigienik xususiyatlarini o'rganish standart usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkilamchi sellulozaning sellulaza fermenti bilan ta'sirlashuvini temperatura-vaqt va konsentratsiya o'zaro bog'liqliklari materialning birlamchi teksturasini tiklanishiga va morfologiyasini yaxshilanishiga olib keluvchi sharoitlar sifatida aniqlangan;

biomodifikatsiya jarayonida ikkilamchi sellulozaning yuzasidan qo'shimchalar va tolachalarning maksimal darajada chiqarib yuborilishi, bu esa materialning kapillyar-g'ovakli tuzilmasi va xossalarni yaxshilashga xizmat qilishi isbotlangan;

xrom qirindisi ko'rinishidagi oshlangan charm chiqindilari kollagenini fermentativ gidrolizi jarayonida proteaza fermentining minimal sarfi bilan samaradorligi va selektivligi isbotlangan;

tolalar g'ovakliligi va mikrostrukturasi bir vaqtni o'zida yaxshilanishi, ichki hajmini ortishi bo'yovchi moddaning tolalarga yaxshi sorbsiyasi va mustahkamlanishini, shuningdek, eritmasining selluloza tolalari ichida teng taqsimlanishini ta'minlashligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikkilamchi sellulozali to'qimachilik materiallarini biosayqallash, bo'yashga tayyorlash, bo'yash jarayonlarida muqobil modifikatsiyaning sharoitlari aniqlangan;

modifikatsiya texnologik parametrlari, sellulozali to'qimachilik materiallari va charm chiqindilarining fizik-mexanik hamda ekspluatatsion xususiyatlari aniqlangan;

tolalar yuzasida sifatli rang olish uchun bo'yochi eritma tarkibi, komponentlarning konsentratsiyasi, bo'yash va termofiksatsiya jarayonlari uchun vaqt va temperatura parametrlarining qiymatlari aniqlangan;

biomodifikatsiyalangan charm chiqindilari va makulatura, akril emulsiyasidan iborat tolali massa, uning asosida qadoqlash qog'ozini va poyabzal asosiy patagi ishlab chiqarilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Natijalarning zamonaviy fermentativ kataliz nazariyasi va standart talablariga mosligi, IQ-Furye spektroskopiyasi, DTA, SEM-EDX, rentgen fazaviy tahlil, kolorimetriya kabi fizik-kimyoviy usullar bilan eksperimental tadqiqotlar o'tkazilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sellulaza fermentining ikkilamchi sellulozadagi glikozid bog'lanishlarini, proteaza fermentining esa xromli qirindisi kollagenining peptid bog'lanishlarining uzilishiga katalitik ta'siri va fermentativ jarayonlarning optimal sharoitlari aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fermentativ biosayqallanishdan so'ng ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan to'qimachilik matosining teksturasi va xususiyatlari tiklanganligi, shuningdek, biomodifikatsiyalangan xromli charm chiqindilari qirindisi bilan ikkilamchi selluloza asosida poyabzal asosiy patagini olish imkoniyati yaratilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ikkilamchi selluloza va charm chiqindilarini biomodifikatsiya qilish natijalari asosida:

biomodifikatsiyalangan va bo'yalgan ikkilamchi sellulozadan mato "Nur Tex" MChJda maxsus kiyimlar ishlab chiqarishda joriy etilgan ("O'ZTO'QIMACHISANOAT" uyushmasining 2025 yil "19" sentabrdagi 02/25-2228-sonli ma'lumotnomasi). Natijada biomodifikatsiyalangan mato maxsus kiyimlarni loyihalash sifatini oshirish, ishlov berish aniqligini ta'minlash, ikkilamchi selluloza xomashyosi yordamida moddiy va mehnat xarajatlarini kamaytirish hamda ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish imkonini bergan;

biomodifikatsiyalangan charm qirindi chiqindilari va ikkilamchi selluloza tolalaridan olingan tolali massa "Umid Fashion Grand" XKda poyabzalning asosiy patagi sifatida joriy etilgan ("O'ZTO'QIMACHISANOAT" uyushmasining 2025 yil "19" sentabrdagi 02/25-2228-sonli ma'lumotnomasi). Natijada taglik va poyabzalning xizmat qilish muddati uzayib, charm poyabzal korxonasi chiqindilardan tozalandi hamda atrof-muhitga zararli ta'sirini kamaytirish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusida jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 tasi ilmiy maqola bo'lib, shulardan 2 tasi respublika, 2 tasi xorijiy jurnallarda (ularning 2 tasi Scopus bazasiga kiritilgan) nashr etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to‘rtta bob, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi ilm-fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilmasi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi tolali xomashyoni modifikatsiya qilish muammolari”** deb nomlangan birinchi bobida – dissertatsiya mavzusiga oid nashr etilgan manbalar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga baho va tahlil natijalari keltirilgan. Qog‘oz va oyoq kiyim ishlab chiqarish uchun tolali massa olish texnologiyasining zamonaviy holati tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida – **“Ikkilamchi tolali xomashyoni modifikatsiya qilish usullari va materiallar xossalarini o‘rganish”** da tadqiqot obykti, ikkilamchi sellyulozani biosayqallash metodikasi, bo‘yash, oshlangan charm chiqindisining xromli qirindisini biomodifikatsiya qilish, biomodifikatsiyalangan tolali massadan o‘ram qog‘ozni quyish usuli, tolali massa va ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalarini o‘rganish usullari va o‘lchash vositalari bayon etilgan.

Ikkilamchi sellyulozaning biokimyoviy modifikatsiyasi turli konsentratsiyadagi sellulaza eritmasida, ma’lum temperatura va vaqt davomida amalga oshirildi. Modifikatsiya darajasi kamaygan shakarlar miqdori va paxta matolarining kapillyarligi bo‘yicha baholandi. Oshlangan charm chiqindisining xromli qirindisi proteaza eritmasida fermentativ modifikatsiya qilindi. Shundan so‘ng, charm chiqindilari laboratoriya tegirmonida – gidromaydalagichdan foydalanib, 60–65° ShR darajasiga qadar maydalandi.

Biomodifikatsiyalangan tolali massa – oshlangan charm chiqindisining xromli qirindisi, ikkilamchi sellyuloza va yelimlovchi polimerdan iborat bo‘lib, laboratoriya sharoitida qog‘oz quyish mashinasida kompozitsion qog‘oz quyish uchun ishlatildi.


Uchinchi bob – **“Ikkilamchi sellyulozaning sellulaza fermenti bilan biomodifikatsiyasi”** da tadqiqot natijalari muhokama qilingan. Ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan mato sellulaza fermenti yordamida fermentativ ishlovdan o‘tkazildi, bu esa ikkilamchi xomashyodagi kamchiliklarni bartaraf etishning eng samarali usuli sifatida tanlandi.

Ikkilamchi sellyulozaning biosayqallash jarayonida mikrostrukturadagi o‘zgarishlar IQ-Furye (infraqizil Furye spektroskopiyasi) metodi yordamida aniqlangan.

Dastlabki namunadagi IQ-Furye spektri (1-rasm) quyidagi xususiyatlarga ega: 3336 va 3264 sm^{-1} sohalaridagi yutish chiziqlari (ν)_{O-H} – gidrogen bog‘lar;

2931–2849 cm^{-1} oralig'ida $(\nu)_{\text{C-H}}$ – uglerod-vodorod bog'lari; 1660 cm^{-1} da cho'qqi – karbonil birikmalar (qolgan lignin yoki oqsillar); 1200–1000 cm^{-1} oralig'i– $(\nu)_{\text{C-O}}$, $(\delta)_{\text{C-O}}$ polisaxarid matritsasidagi bog'lar; taxminan 895 cm^{-1} dagi cho'qqi – β -glikozid bog'i (β -1,4) sellulozaniki.


An'anaviy ishlov berilgandan so'ng namunadagi IQ-Furye spektri quyidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi: $(\nu)_{\text{O-H}}$ chiziqlarining yaqinlashuvi – gidrogen bog'larning kamroq uzilganligi; 1635 cm^{-1} da chiziq mavjudligi – qolgan aralashmalar borligidan darak beradi; 1200–1000 cm^{-1} oralig'ida yanada aniqlashtirilgan va keskin cho'qqilar – strukturadagi qisman kristallik mavjudligini bildiradi; 898 cm^{-1} dagi β -glikozid cho'qqisi saqlangan.




1-rasm. Ikkilamchi selluloza namunalarini IQ spektrlari: a) dastlabki; b) an'anaviy ishlovdan song; c) fermentativ ishlovdan so'ng

Fermentativ ishlov berishdan keyingi namunada kuzatilgan o'zgarishlar: $(\nu)_{\text{O-H}}$ chiziqlari (3334–3278 cm^{-1}) intensivligining biroz kamayishi – gidrogen bog'lar qisman uzilganligi; 1660 cm^{-1} dagi chiziqning yo'qolishi – karbonil aralashmalar olib tashlanganligi; 1200–1000 cm^{-1} oralig'idagi chiziqlarning intensivligi kamaygani va yassi ko'rinish olgani – glikozid bog'larining uzilishi yoki modifikatsiyalanganini bildiradi; 898 cm^{-1} dagi cho'qqi o'zgarmaganligi – bu β -1,4-sellyuloza tuzilmasining saqlanib qolganidan dalolat beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar asosida ikkilamchi sellyulozaning ferment bilan o‘zaro ta’sir reaksiyasi quyidagi sxema bilan ifodalanishi mumkin:



Shu bilan birga, mato namunasining gidrofilligi va kapillyarligi bir vaqtda yaxshilanadi. Biosayqallanish turli boshlang‘ich sellulaza konsentratsiyalarida o‘tkazildi. Mato kapillyarligi 2-rasmda keltirilgan.




2-rasm. Turli konsentratsiyada fermentativ ishlov berilgan matolarning kapillyarligi

Sinovlar natijasiga ko‘ra, ferment konsentratsiyasi 2 g/l gacha oshganda matoning kapillyarligi ortadi, lekin bundan keyingi konsentratsiya oshirilishi kapillyarlikka sezilarli ta’sir qilmaydi. Biosayqallashdan so‘ng eritmadagi umumiy qand miqdori ham sellulaza konsentratsiyasi ham 2 g/l gacha ortadi. Aniqlanishicha, aynan shu ferment konsentratsiyasi eritmada ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan material yuzasidan tolachalar va tukchalarni deyarli to‘liq olib tashlashni ta’minlaydi.

Keyingi tadqiqotlar sellulaza fermentining 2 g/l konsentratsiyasida olib borildi. Fermentativ ishlov berish samaradorligiga temperatura va vaqtning ta’siri o‘rganildi. Kapillyarlik va qand miqdorining eng yuqori ko‘rsatkichlari 50°C temperaturada kuzatildi. Temperatura 50°C gacha ko‘tarilganda ishlov berish tezligi biokimyoviy jarayonlar qonuniyatlariga muvofiq o‘zgaradi.

Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, qayta tiklangan ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan matoga biosayqallashning maksimal samarasi 1,5–2 soat davomida, sellulaza konsentratsiyasi 1,5–2,0 g/l va temperatura 50–60°C bo‘lganda erishiladi. Har bir eritmada ishlov berish takroriyiligini aniqlash uchun bir xil sharoitda ketma-ket 5 ta xom mato namunasi ishlovdan o‘tkazildi va har bir ishlovdan keyin eritmadagi umumiy qand miqdori aniqlandi (3-rasm).


Tiklangan qand miqdori barcha eritmalarda uchinchi namuna ishlovidan keyin mos ravishda ortadi. Ferment konsentratsiyasi 2 g/l gacha bo‘lgan hollarda to‘rtinchi va beshinchi namunalarga ishlov berilgach, tiklangan qand miqdori sezilarli darajada oshmaydi.



3-rasm. Eritmadagi tiklangan qand miqdorining ferment konsentratsiyasi va ishlov berishlar soniga bog'liqligi

Tiklangan qand miqdori barcha eritmalarda uchinchi namuna ishlovidan keyin mos ravishda ortadi. Ferment konsentratsiyasi 2% gacha bo'lgan hollarda to'rtinchi va beshinchi namunalarga ishlov berilgach, tiklangan qand miqdori sezilarli darajada oshmaydi. Bu shuni anglatadiki, har uchinchi ishlovdan so'ng eritmaga hisoblangan miqdorda ferment qo'shilishi lozim. Mos ravishda, fermentning yuqoriroq konsentratsiyalarida esa to'rtinchi va beshinchi ishlovdan keyin ham shakarlar miqdori yetarli darajada ortishda davom etadi.

Ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan biosayqallangan mato kapillyarligi an'anaviy usulda qaynatilgan mato bilan solishtirib o'rganildi. Ma'lumotlar 4-rasmda keltirilgan.




4-rasm. Turli ishlov berish usullarida vaqt davomida matolarning kapillyarligi o'zgarishi. Mato namunalarining turlari: a) ishlov berilmagan; b) an'anaviy ishlov berilgan; c) fermentativ ishlov berilgan

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, ikkilamchi sellyulozadan tayyorlangan matoga sellulaza fermenti bilan ishlov berilgach, kapillyarlik an'anaviy qaynatish usulidan keyingisiga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Buning sababi shundaki, fermentativ ishlov berish jarayonida aralashmalar to'liq olib tashlanadi, tolalarning yuzaki qatlami yemiriladi, bu esa kapillyarlarning hajmini oshirib, shimuvchanlikni yaxshilaydi.

SEM (skanerlovchi elektron mikroskopiya) natijalariga ko'ra, dastlabki mato namunasi tolalarining yuzasi, katta ehtimol bilan, to'qimachilik ishlab chiqarish jarayonida ishlatilgan ohorlovchi modda bilan qoplangan. Fermentativ tayyorlovdan so'ng tolalar yuzasida ohorlovchi qatlam mavjudligining hech qanday belgisi qolmagan (5- va 6-rasmlar). Fermentativ ishlov berish nafaqat tolalarni iflosliklardan tozalagan, balki ularning yuzasini tekislash va silliqlashga ham yordam bergan. Bu esa tolaning tuzilishida, dastlabki namunaga nisbatan, aniq namoyon bo'lgan.




5-rasm. Qayta tiklangan ikkilamchi sellyulozaning dastlabki namunasi yuzasining SEM tasviri



6-rasm. Fermentativ ishlovdan so'ng mato yuzasining SEM tasviri

O'rganilayotgan namunalarning termik xossalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. 7-rasmda dastlabki ikkilamchi sellyulozaning TGA (termogravimetrik tahlil) va DTA (differensial termik tahlil) egri chiziqlari keltirilgan. Termik tahlil namunalar qizdirilganda yuz beruvchi fazaviy o'tish temperaturalarini va issiqlik effektlarini aniqlash bilan birga, modifikatsiya jarayonida yuz bergan o'zgarishlar xarakterini hamda namunalar tozaligini baholash imkonini beradi.

TGA grafigi ham ishlov berilmagan, ham fermentativ ishlovdan o'tgan namunalar uchun uchta xarakterli bosqichni namoyon etadi. Birinchi bosqich xona temperaturasidan 243,29 °C gacha bo'lgan temperatura oralig'iga to'g'ri keladi va 6,101% massa yo'qotilishi bilan kechadi, bu esa fizik adsorbsiyalangan namlikning yo'qolishi bilan bog'liq. Ikkinchi bosqichda (243,29–403,97 °C) asosiy massa yo'qotilishi – 65,808% kuzatiladi. Uchinchi bosqich esa 403,97–601,69 °C temperatura oralig'ini qamrab olib, qo'shimcha 17,045% massa yo'qotilishi bilan xarakterlanadi.




7-Rasm. Ikkilamchi sellyulozaning TGA va DTA egri chiziqlari — fermentativ qayta ishlashdan oldin (a) va keyin (b)

Fermentativ ishlov berilgan namunalar uchun TGA va DTA egri chiziqlari ko'p jihatdan ishlov berilmagan materialning grafiklariga o'xshash, biroq ayrim farqlarni ham namoyon etadi. Ishlov berilgan namunada termik parchalanishning endotermik effekti $-379,13 \text{ J/g}$ ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich ishlov berilmagan analogiga nisbatan pastroqdir. Ushbu o'zgarishlar, ehtimol, sellulaza fermenti ta'sirida tolalar yuzasining modifikatsiyalanishi va sellyuloza matritsasining amorf


qismining oshishi bilan bog'liq. Parchalanish issiqlik effektining kamayishi, fermentativ ishlov jarayonida selluloza tuzilmasining bir qismi buzilganini va qolgan bog'larni buzish uchun kamroq energiya talab etilishini ko'rsatadi.

Qayta ishlanmagan va biomodifikatsiyalangan ikkilamchi selluloza namunalariga rentgen fazaviy tahlil (XRD) o'tkazildi. 8- va 9-rasmlarda keltirilgan rentgenogrammalardan ko'rinib turibdiki, barcha o'rganilgan namunalar amorf va kristallik struktura elementlariga ega.

Dastlabki matoning difraktogrammasida (8-rasm) kristallik fazaning eng intensiv signali taxminan $23,2^\circ$ (2θ daraja) difraksiya burchagida kuzatiladi, bu signalning absolyut intensivligi 8303 birlikni tashkil etadi. Biomodifikatsiyadan so'ng ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan paxta matosida kristallik faza signalining joylashuvi va intensivligi sezilarli darajada o'zgarmaydi: eng kuchli signal $23,16^\circ$ (2θ) da kuzatiladi, uning absolyut intensivligi esa 8385 birlikni tashkil qiladi.



8-rasm. Xom ikkilamchi sellulozadan olingan to'qimaning rentgenogrammasi



9-rasm. Biomodifikatsiyalangan ikkilamchi sellulozadan olingan to'qimaning rentgenogrammasi

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan dastlabki paxta to'qimasi kristallik darajasi, bioqaynatishdan keyingi to'qimaga nisbatan yuqori. Bu esa to'qima tuzilmasidagi amorf qismining ulushi ortganini ko'rsatadi. Amorf qismining ko'payishi bo'yovchi moddaning tolalar ichiga chuqurroq kirib borishiga yordam beradi.

Qayta tiklangan ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan to'qimaning fizik-mexanik xususiyatlari o'rganildi (1-jadval). Qayta ishlov berilgandan so'ng to'qimaning sirt zichligi oshganligi kuzatildi. Buni to'qimaning kapillyar xususiyatlari oshgani bilan tushuntirish mumkin, natijada to'qima havodan namlikni o'ziga singdirgan.

To'qimaning uzilishdagi kuchlanishi yoki tolalarning mustahkamligi, tuzilmasi va geometrik o'lchamlariga bog'liq. Biomodifikatsiya asos va arqoq tolalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Sellulaza bilan ishlov berilganda asos bo'ylab uzilishdagi kuchlanish an'anaviy ishlov berishdagidan ham, xom to'qimadagidan ham yuqoriroq bo'ladi. Ammo arqoq bo'ylab to'qima mustahkamligi fermentativ ishlovdan so'ng

taxminan 5% ga kamayadi. Fermentativ ishlov viskozaning mustahkamligini biroz yomonlashtiradi, natijada bunday natija kuzatiladi.

1-Jadval

Ikkilamchi sellulozadan tayyorlangan to‘qimaning fizik-mexanik xususiyatlari

		Ishlov berish usullari		
		Xom	An’anaviy	Sellulaza eritmasida
Uzilish kuchi, N	Asos	429 ± 20	415 ± 18	480±12
	Arqoq	630 ± 25	630 ± 21	598±15
Uzilishdagi cho‘zilish,%	Asos	5,7 ± 1,2	6,0 ± 0,9	6,0 ± 0,5
	Arqoq	10,1 ± 1,2	16,6 ± 1,1	12,7 ± 0,7
Ishqalanishga chidamlilik, sikl		9600 ± 300	12000 ± 200	12500 ± 200
Yuzaki zichlik, g/m ²		308,7 ± 2,5	321,0 ± 2,5	322,6 ± 2,5
Havo o‘tkazuvchanlik, sm ³ / sm ² •s		25,5 ± 1,5	26,1 ± 1,3	27,4 ± 1,0

An’anaviy qayta ishlash (20–25%) va fermentativ qayta ishlash (25–30%) to‘qimaning ishqalanishga chidamliligini oshiradi, bu esa bunday to‘qimalarni ekspluatatsiya sharoitida uzoqroq xizmat qilishiga olib keladi.

Xom to‘qima namunasi uchun havo o‘tkazuvchanlik 25,5 sm³/sm²•s ni tashkil etadi. An’anaviy va fermentativ ishlovdan so‘ng bu ko‘rsatkich 2,3–7,4% ga oshadi. Bu tolalar orasidagi masofaning oshishi bilan izohlanadi, chunki yopishtiruvchi kraxmal qatlami olib tashlanadi va ferment qo‘llanilganda mayda to‘qimalar va tolachalar yo‘qoladi.


To‘qimachilik materialini ma’lum bir rangga bo‘yash – unga bo‘yovchi modda ta’siri ostida rang berish – to‘qima ishlab chiqarishning muhim bosqichidir.

Ko‘rinishiga ko‘ra, barcha bo‘yalgan to‘qimalar bir xil malina rangida. Yuvishdan oldin biologik usulda tayyorlangan namunalar rang intensivligi an’anaviy usulga o‘xshash. Fermentativ usulda yorug‘lik ko‘rsatkichi an’anaviy usulga nisbatan yuqoriroq. An’anaviy usulda bo‘yalgan to‘qima, biologik usulda bo‘yalgan to‘qimaga qaraganda biroz ochroq. Bu bioqaynatma usulini bo‘yashga tayyorgarlikda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi.

Bo‘yalgan to‘qimalar uchun quyidagilar aniqlangan: yorug‘likka chidamlilik, quruq va nam ishqalanishga chidamlilik, ter va sovunli ishlov ta’siriga chidamlilik. Barcha namunalar turli ta’sirlarga nisbatan rang chidamliligi juda yuqori. Eng yaxshi natijalar fermentativ tayyorgarlikdan keyin bo‘yalgan namunalarda kuzatildi.

Bo‘yalgan ikkilamchi selluloza namunasi tarkibidagi funksional guruhlarini aniqlash uchun IQ-Furye spektroskopiyasi o‘tkazildi (10-rasm).

3333–3273 sm⁻¹ oralig‘idagi chiziq (ν)_{O-H} sellulozaning gidroksil guruhlarining valent tebranishlariga mos keladi, shuningdek, qolgan namlikni ham ko‘rsatadi. 2915 va 2849 sm⁻¹ da joylashgan chiziqlar (ν)_{C-H} karbon-gidrogen bog‘larining valent tebranishlariga tegishli.




10-Rasm. Biomodifikatsiyadan keyin bo‘yalgan ikkilamchi sellyulozaning IQ-Furye spektroskopiyasi


1740 sm^{-1} da joylashgan intensiv chiziq (ν)_{C=O} karbonil guruhining tebranishiga mos keladi, bu esa oksidlanish mahsulotlari yoki bo‘yovchi moddaning funksional guruhlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

1645 va 1620 sm^{-1} da joylashgan chiziqlar suvning deformatsion tebranishlariga va aromatik strukturalardagi C=C bog‘larning tebranishlariga mos keladi, bu esa bo‘yovchi moddaning aromatik fraksiyalarining mavjudligini ko‘rsatadi. 1464–1315 sm^{-1} oralig‘idagi chiziqlar (ν)_{C-H} va ν _{C-O-H} sellyulozaning polisaxarid strukturasi xos bo‘lgan deformatsion tebranishlarga mos keladi. 1107, 1054, 1039 va 984 sm^{-1} da joylashgan chiziqlar (ν)_{C-O-C} va (ν)_{C-O} β -glikozid bog‘larining valent tebranishlariga tegishli bo‘lib, bu sellyulozadagi glikozid qoldirlari o‘rtasidagi bog‘lanishni ko‘rsatadi. 800–700 sm^{-1} oralig‘idagi chiziqlarda o‘zgarishlar bo‘yovchi moddaning sellyuloza bilan xlor almashinuvi reaksiyasi orqali bog‘lanish mexanizmini to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasdiqlaydi, bu esa bo‘yovchi moddaning to‘qimaga mustahkam bog‘lanishining asosiy bosqichidir. IQ- spektroskopiyasi biomodifikatsiyadan keyin bo‘yalgan sellyuloza to‘qimasida bo‘yovchi moddaning kimyoviy bog‘lanishini tasdiqlaydi, bu esa bo‘yovchi moddaning xos chiziqlarining saqlanishi bilan birga ularning intensivligi va joylashuvidagi o‘zgarishlarda, ayniqsa 800–700 sm^{-1} oralig‘ida, aromatik strukturalarning sellyuloza matritsasi bilan o‘zaro ta’sirini aks ettiradi.

Shuningdek, 11- va 12-rasmlarda an’anaviy va fermentativ ishlovdan keyin faol bo‘yovchi modda bilan bo‘yalgan paxta to‘qimalarining sirt morfologiyasi o‘rganildi. 11-rasmda ortiqcha qo‘shimchalar mavjudligi ko‘rinmoqda. Ortiqcha qo‘shimchalar to‘qima yuzasidan yordamchi moddalarni to‘liq olib tashlanmaganini bildiradi. Fermentativ ishlovdan (12-rasm) keyin bo‘yalgan to‘qima xom paxta to‘qimasining yuzasidagi deyarli barcha aralashmalarni olib tashlash imkonini berdi. Biroq to‘qima atrofida bo‘yovchi moddani yig‘ilishi kuzatilmaydi. Bu esa bo‘yovchi moddaning ikkilamchi paxta tolasi ichiga to‘liq shimib olganini ko‘rsatadi.




11-rasm. SEM tasviri: an'anaviy usulda ishlov berilganidan keyin bo'yalgan paxta to'qimalarining yuzasi



12-Rasm. SEM tasviri: fermentativ usulda ishlov berilganidan keyin bo'yalgan paxta to'qimalarining yuzasi

Biomodifikatsiyadan keyin bo'yalgan ikkilamchi sellyuloza namunalarida termik tadqiqotlar o'tkazildi. Ularning TGA va DTA egri chiziqlari 13-rasmda keltirilgan.



13-Rasm. Biomodifikatsiyadan keyin bo'yalgan ikkilamchi sellyulozaning TGA va DTA egri chiziqlari


TGA bo'yalgan namunalarida termik parchalanishning uch bosqichi aniqlangan. Birinchi bosqichda, 286,56 °C gacha bo'lgan temperaturada, 5,809% ga teng bo'lgan kichik massa yo'qotilishi qayd etilgan, bu fermentativ ishlovdan yoki bo'yashdan o'tmagan

namunalar uchun olingan ko'rsatkichlarga nisbatan past. Bu esa bo'yalgan matritsada namlik va uchuvchan komponentlarning yaxshiroq saqlanishi bilan izohlanishi mumkin.

Sellyulozaning asosiy termik destruksiya bosqichi 389,51°C dan yuqori temperaturalarda sodir bo'ladi va taxminan 96,46% massa yo'qotilishi bilan kechadi. Sellyuloza matritsasining parchalanishi, bo'yalmagan materialda -379,13 J/g, bo'yalganida esa -569,99 J/g ga teng bo'lgan kuchli endotermik effekt bilan birga kechadi. Termik effektning oshishi sellyulozaning va organik bo'yovchi moddaning parchalanish temperatura diapazonlarining kesishuvi bilan bog'liq bo'lib, materialning bu temperatura intervalida yanada kuchliroq termik parchalanishiga olib keladi.

Bo'yalgan ikkilamchi sellyuloza to'qimalarning struktura-fazaviy xususiyatlari o'rganildi. 14-rasmda biomodifikatsiyadan keyingi bo'yalgan ikkilamchi sellyuloza namunalarining rentgenofazaviy tahlili (XRD) ko'rsatilgan.


14-rasmdan ko'rinib turibdiki, biomodifikatsiyadan keyin bo'yalgan ikkilamchi sellyulozali paxta to'qimasi uchun, kristall fazaga oid eng intensiv signal (2θ)=43,71° burchakda kuzatiladi va uning absolyut intensivligi -17848 (100 %) ga teng.



14-rasm. Biomodifikatsiyadan keyin bo‘yalgan ikkilamchi sellyulozaning rentgenogrammasi

To‘rtinchi bob – «**Proteaza fermenti yordamida oqsil asosidagi ikkilamchi tolali massani biomodifikatsiyasi**»da, teri sanoati chiqindilaridan olingan ikkilamchi xromli qirindisining proteaza fermenti yordamida biomodifikatsiyasi bo‘yicha tadqiqot natijalari muhokama qilingan.

Biomodifikatsiya jarayonlarining o‘zaro ta’siri va kimyoviy mexanizmini aniqlash maqsadida IQ-Furye spektroskopik tadqiqotlar o‘tkazilgan (15-rasm).




15-rasm. Biomodifikatsiyadan oldingi (a) va keyingi (b) xromli qirindilarining IQ-Furye spektroskopiyasi

Xromli qirindilarning FT-IR spektrida oqsil moddalariga tegishli bog‘larning valent (ν) va deformatsion (δ) tebranishlariga xos bo‘lgan yutish chiziqlari aniqlangan (15-rasm, a): 3287 cm^{-1} – (ν)_{N-H}, (ν)_{O-H}; 2982 va 2911 cm^{-1} – (ν)_{C-H}; 1632 cm^{-1} – (ν)_{C=O}; 1546 cm^{-1} – (δ)_{N-H}; 1445 cm^{-1} – (ν)_{C-H}; 1324 va 1232 cm^{-1} – (ν)_{C-N}, (δ)_{N-H}; 1205 – 1013 cm^{-1} – (ν)_{C-N}, (ν)_{C-O}. Fermentativ qayta ishlashdan keyin 1637 va 1537 cm^{-1} sohalardagi amid chiziqlarining intensivligi sezilarli darajada kamaygan (15-rasm, b), bu fermentlar ta’sirida oqsil matritsasining qisman parchalanishini ko‘rsatadi. Bu esa kollagenning samarali gidrolizini tasdiqlaydi, 1200 – 1000 cm^{-1} diapazonida cho‘qqilarni paydo bo‘lishi va intensivligi ortishi kuzatiladi. Ushbu soha (ν)_{C-O} va (ν)_{C-C} tebranishlariga xos bo‘lib, kollagenning parchalanish mahsulotlari – peptidlar va uglevod komponentlarining shakllangani bilan bog‘liq. 3300 cm^{-1}

atrofidagi keng $(\nu)_{N-H}$; $(\nu)_{O-H}$ chiziqlarining torayishi va intensivligining kamayishi suv miqdorining pasayishi hamda oqsildagi amin guruhlarni parchalanishi bilan izohlanadi. 2900 cm^{-1} $(\nu)_{C-H}$ tebranishlardagi minimal o'zgarishlar esa lipid qoldiqlarining alkil zanjirlari amalda saqlanib qolganini ko'rsatadi.



SEM tasvirlari esa biomodifikatsiyadan so'ng xromli qirindilarining tuzilmasida sezilarli o'zgarishlarni tasdiqladi: kollagen tolalarini parchalanishi, bo'laklanishi va zichlashganligi, organik matritsaning chuqur degradatsiyasidan darak beradi (16-rasm).



16-rasm. Biomodifikatsiyalangan xromli qirindilari yuzasining SEM tasviri

Ochiq sohalar va g'ovak tuzilmaning paydo bo'lishi oqsil komponentlarning sezilarli qismi olib tashlanganini tasdiqlaydi, bu esa IQ-Furye spektroskopiyasi natijalari bilan mos keladi. Eksperimental tolali material namunalari xromli qirindilari, proteaza

eritmasi (2 g/l) bilan biomodifikatsiyalangan va makulatura aralashirilishi orqali olindi. Massaviy nisbat xromli qirindi: makulatura = 50:50 bo'lgan kompozitsion material bo'yicha SEM-EDS tadqiqotlari o'tkazildi. Kompozitsion materialning ikki namunasi o'rganildi: birinchi namuna uchun yelimlovchi vosita sifatida akril emulsiyasi ishlatilgan, ikkinchisida esa oshlanmagan charm chiqindilaridan olingan kollagenli eritma qo'llanilgan (17-rasm).



17-rasm. Massaviy nisbat makulatura: biomodifikatsiyalangan xromli qirindi = 50:50 bo'lgan aralashmadan olingan kompozitsion tolali massalarning SEM tasvirlari, yuqoridan ko'rinishi: A) akril emulsiyasi bilan; B) kollagen saqlovchi eritma bilan

17-rasm A da tolalar o'zaro chambarchas bog'langan zich tuzilma kuzatiladi, biroq ularning bir qismi ehtimol akril emulsiyasi qoldiqlari bo'lgan, sirt bo'ylab bir tekis taqsimlangan plyonka shaklidagi modda bilan qoplangan. 17-rasm B da kollagen saqlovchi eritma qo'shilganidan so'ng, tolalar bir tekis joylashgan, aniq chegaralarga ega, deyarli yopishmagan va plyonka hosil qilmagan. Tuzilma hali ham to'rsimon va ochiq holda saqlangan bo'lib, tolalar orasidagi kanallar aniq ko'rinadi.

Akril emulsiyasi zich va qattiq struktura hosil qilsa, kollagen esa materialda g'ovaklik, tartiblilik va elastiklikni taminlaydi.

Material xossalariiga tolali massaning maydalanish darajasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Optimal maydalash vaqti – 5 daqiqa. Kamroq vaqt berilganida maydalanish darajasi past bo'ladi. Vaqtni oshirish esa ijobiy natija bermaydi, aksincha, tolalarning dispersligini yomonlashtirib, ShR° ko'rsatkichini pasaytiradi.

Biomodifikatsiyalangan xromli qirindilari va ikkilamchi selluloza asosida olingan tolali massa charm mahsulotlari, jumladan, poyabzal detallari ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkin.

XULOSA

1. To'qimachilik chiqindilaridan qayta tiklangan ikkilamchi selluloza-sellulaza fermenti yordamida va xrom bilan oshlangan charm chiqindilari proteaza yordamida biokimyoviy modifikatsiyadan o'tkazildi. Eng samarali biomodifikatsiya natijalari ferment konsentratsiyasi 1,5–2 g/l, temperatura 50–60°C va vannaning moduli 1:20 bo'lgan sharoitda, 1,5–2 soat davomida kuzatildi.

2. Selluloza fermenti ikkilamchi sellulozaning β -1,4-glikozid bog'larini gidroliz qilish orqali biokatalizator sifatida xizmat qiladi, karbonil tutuvchi iflosliklarni yo'qotishga yordam beradi. Neytral proteaza ishtirokida xrom bilan oshlangan charm chiqindilari tarkibidagi kollagenning peptid bog'lari selektiv tarzda gidrolizlanadi.

3. Biokimyoviy modifikatsiya natijasida ikkilamchi sellulozaning tuzilmasi sezilarli darajada yaxshilanadi, kollagenning birlamchi tuzilmasi qisman buziladi, ammo uch spiralga ega bo'lgan yirik molekulyar tuzilma to'liq yemirilmaydi. Bu tolalar yuzasida funksional guruhlarning (–OH,–NH₂,–COOH) mavjudligini oshiradi, natijada materialning gidrofilligi, reaktivligi va sorbsiya xossalari kuchayadi.

4. Fermentativ modifikatsiyadan so'ng ikkilamchi sellulozaning mustahkamligi 12–15% ga, ishqalanishga chidamliligi 4–30% ga, havo o'tkazuvchanligi esa 5–8% ga ortadi. Biosayqallanishdan so'ng sellulozaning kristallik darajasi 54,7% dan 52,6% gacha kamayadi, bo'yovchi bilan bo'yalganidan keyin esa 64,1% gacha oshadi – bu bo'yovchining tolalarga yaxshi diffuziyalanishi va sorbsiyasi bilan izohlanadi. Bo'yalgan selluloza tolalari yorug'lik, quruq va nam ishqalanish, ter va sovunli ishlov berishga nisbatan yuqori chidamlilikka ega.

5. Biomodifikatsiyalangan xromli qirindilari va ikkilamchi selluloza asosidagi tolali massa charm mahsulotlarini, jumladan, poyabzal detallari ishlab chiqarishda muvaffaqiyatli qo'llanishi mumkin. Biomodifikatsiyalangan taglik materialining mustahkamligi ishqoriy modifikatsiya qilingan namunaga nisbatan 5,0% ga, sanoat namunaga nisbatan esa 21,7% ga oshdi, ikki martalik bukilish soni esa 66,7% ga ko'paydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.01/2025.27.12.К.04.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ЧИРЧИКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ПЕДАГОГИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ТЕКСТИЛЬНОЙ И ЛЕГКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ**

ЖУРАЕВА ГУЛНОЗА АБДУРАШИТ КИЗИ

**БИОХИМИЧЕСКАЯ МОДИФИКАЦИЯ ВТОРИЧНОГО
ВОЛОКНИСТОГО СЫРЬЯ ПРИРОДНЫХ ПОЛИМЕРОВ**

02.00.06 – Высокомолекулярные соединения

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по химическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2025.1.РhD/К929.

Диссертация выполнена в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.espi.uz/itm-y-kenqash/) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net/uz).

Научный руководитель:

Рафиков Алхам Салимович
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Каримов Махмуд Муратович
доктор химических наук, профессор
Юлдашев Шерзод Абдуллаевич
доктор химических наук,
старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Ташкентский химико-технологический институт

Защита диссертации состоится "5" II 2026 года в 19:00 часов на заседании Научного совета ДSc.01/2025.27.12.К.04.04 при Чирчикском государственном педагогическом университете (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (0371) 716-68-05, факс (0371) 716-68-11; e-mail: tvchdri_k.kenqash@mail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Чирчикского государственного педагогического института (Адрес: 111720, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Амир Темура, 104. Тел.: (0371) 716-68-05, факс (0371) 716-68-11 (зарегистрирована за № 44/1)).

Автореферат диссертации разослан «19» II 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 30 от «19» II 2026 года).

О.Э. Зиядуллаев
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор

Г.К. Отамухамедова
научный секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, д.х.н.

Д.Ж. Бекчанов
Председатель научного семинара
по присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор



ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире текстильная и легкая промышленность стала перспективным рынком развивающихся стран благодаря растущему спросу потребителей на повседневные и инновационные товары. К сожалению, в настоящее время во многих отраслях экономики, в том числе в текстильной промышленности, все больше ощущается сырьевая проблема, происходит повышение стоимости природных и энергетических ресурсов. В то же время накапливаются огромное количество технологических и бытовых волокнистых отходов, восстановление и повторное использование которых представляет важное экологическое и экономическое значение.

В мире проводятся широкие исследования и выполняются проекты по фундаментальным и прикладным вопросам целевой утилизации волокнистых отходов, реализованы процессы их восстановления в качестве вторичного сырья. Очевидно, для получения материалов и изделий высокого качества из вторичного сырья необходима их предварительная подготовка с целью модификации поверхности, восстановления первичной структуры и функциональных свойств волокон. В последнее время по сравнению с физической и химической модификацией предпочтение отдается биологической модификации, как более щадящего, экономичного, экологичного и селективного способа. Известно успешное применение ферментативной модификации для биополировки материалов из первичных природных волокон, тогда как для вторичных волокон реализация потенциала биохимической модификации ждут своего решения.

Текстильная промышленность Республики Узбекистан, по сути, является локомотивом экономики страны, ввиду сложившейся структуры отраслей производства, выгодных природных условий и сложившихся традиций для выращивания природного волокнистого сырья. Именно это отрасль становится площадкой для внедрения перспективных, инновационных разработок и технологий, достигнуты определенные результаты по переработке бытовых и технологических волокнистых отходов. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы¹ определены задачи «к 2026 году довести сбор бытовых отходов до 100%, уровень их переработки от 21 до 50%». При решении этих задач особое значение приобретает создание научных и практических решений по комплексной переработке волокнистых отходов на основе экологических принципов, научно-практическая реализация биохимической модификации вторичного волокнистого сырья природных полимеров.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

Узбекистана на 2022-2026 годы», УП-5 от 4 января 2024 года «О мерах по совершенствованию системы управления отходами и снижению их негативного воздействия на экологическую ситуацию», Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП-4453 от 16 сентября 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию легкой промышленности и стимулированию производства готовой продукции», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики VII. «Химия, химические технологии и нанотехнологии».

